

INGLIZ VA O‘ZBEK MADANIYATLARIDA PARALINGVISTIK XULQ- ATVORNING AHAMIYATI

Keldiyorova Farangiz Akbar qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti talabasi*

farangizkeldiyorova911@gmail.com

+998-99-255-51-11

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o‘zbek madaniyatlaridagi paralingvistik xulq-atvorning muloqotdagi roli tahlil qilinadi. Paralingvistika nutq bilan birga ifodalanadigan ohang, pauza, tembr, mimika va imo-ishoralarni o‘rganadi. Ingliz madaniyatida rasmiy muloqotda neytral ohang va masofa, o‘zbek madaniyatida esa iliqlik, hissiy ohang va faol imo-ishoralardan foydalanish xususiyatlari taqqoslanadi. Tadqiqot natijalari xalqaro muloqot va madaniyatlararo tushunishni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Paralingvistika, paralingvistik xulq-atvor, noverbal kommunikatsiya, ovoz ohangi, mimika, imo-ishora, proksemika, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: The article analyzes the role of paralinguistic behavior in communication within English and Uzbek cultures. Paralinguistics examines elements that accompany speech, such as intonation, pauses, timbre, facial expressions, and gestures. The study compares the tendency toward a neutral tone and maintained interpersonal distance in formal communication in English culture with the use of warmth, emotional intonation, and active gestures in Uzbek culture. The research findings are of significant importance for improving international communication and enhancing intercultural understanding.

Keywords: Paralinguistics, paralinguistic behavior, nonverbal communication, intonation, facial expressions, gestures, proxemics, intercultural communication, communicative competence.

XX asr o‘rtalaridan boshlab inson muloqotining lingvistik bo‘lmagan jihatlarini o‘rganishga qiziqish keskin ortdi. Birdwhistell, Hall, Argyle kabi olimlar tilning mazmun yaratishdagi yagona vosita emasligini, muloqotning katta qismi paralingvistik belgilar orqali amalga oshirilishini ta’kidlagan. Paralingvistika – bu kommunikatsiyada so‘zga qo‘shimcha ma’no beruvchi ohang, pauza, tembr, mimika, imo-ishora, ko‘z aloqasi va jismoniy masofa

kabi nutqdan tashqari vositalar majmuasidir⁹⁶. Ushbu vositalar nafaqat semantik, balki sotsial va pragmatik ma’no yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz va o‘zbek xalqlarining kommunikativ madaniyati tubdan farq qiladi. Bu farqlar aynan paralingvistik xulq-atvorda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashtirilgan davrda ingliz-o‘zbek madaniyatlari muloqoti keskin kuchaygan, natijada paralingvistik noto‘g‘ri talqinlar tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek madaniyatlarida paralingvistik vositalarning o‘rni, ularning farqlari, o‘xshashliklari hamda madaniyatlararo kompetensiyaga ta’sirini ilmiy asosda ochib berishga doir ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tiladi.

Paralingvistika tushunchasi ilk bor Trager & Smith tomonidan ilmiy adabiyotga kiritilgan bo‘lib, ular uni “nutqning lingvistik bo‘lmagan, ammo ma’no yaratishda faol ishtirok etuvchi elementlari”⁹⁷ deb ta’riflagan. Keyinchalik Mehrabian paralingvistik signallar kommunikativ mazmunga 38% gacha ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi⁹⁸. Bu ko‘rsatkich, albatta, barcha madaniyatlarga bir xil tatbiq etilmaydi, ammo paralingvistik vositalarning kuchi mutlaq ravishda katta ahamiyatga ega.

Paralingvistik vositalar quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Vokal paralingvistika (intonatsiya, balandlik, tembr, tezlik)
2. Kinesika (imo-ishora, qo‘l harakati, tana pozalari)
3. Mimika (yuz ifodalari)
4. Okulesika (ko‘z bilan aloqa)
5. Proksemika (oraliq masofa)
6. Taktilika (jismoniy harakatlar)

Har bir madaniyat ushbu vositalardan o‘ziga xos shaklda foydalanadi va ularning talqini ham turlicha bo‘lishi mumkin. Demak, paralingvistikning o‘rganilishi madaniyatlararo kommunikatsiyani chuqur anglashning muhim sharti hisoblanadi.

Ingliz madaniyatida paralingvistik xulq-atvor jarayonida inglizlar kommunikatsiya jarayonida xotirjamlik, masofa va o‘zini nazorat qilishni qadrlaydilar. Ularning paralingvistik tizimi “yumshoq, neytral va me’yorlangan” bo‘lib, bu madaniyatdagi individualizm va shaxsiy hudud tushunchalari bilan bevosita bog‘liq.

Vokal paralingvistika borasida ingliz nutqi odatda past balandlikda, tekis ohangda, keskin emotsional sakrashlarsiz kechadi. Baland ovozda gapirish ko‘pincha qo‘pol yoki

⁹⁶ Birdwhistell, R. Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.

⁹⁷ Trager, G. L., & Smith, H. L. Paralinguistics. American Anthropologist, 59(5), 1957.

⁹⁸ Mehrabian, A. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. Belmont, CA: Wadsworth Publishing, 1971.

agressiv xulq sifatida talqin qilinadi. Mimika va imo-ishoralar esa inglizlar muloqot jarayonida imo-ishoralardan kam foydalanadi. Qo‘l bilan ortiqcha harakat qilish e‘tiborsizlik yoki emotsional beqarorlik belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin. Ko‘z bilan aloqa ham ingliz madaniyatida ishonch belgisi sifatida qaraladi. Suhbat paytida ko‘zdan qochish ishonchsizlik, yolg‘on yoki noqulaylik belgisi sifatida tushuniladi. Proksemikada inglizlar masofani qat‘iy saqlaydilar. Juda yaqin turib gaplashish “shaxsiy chegaralarni buzish” sifatida baholanadi. Taktika jarayonidagi qo‘l berib ko‘rishish – odatiy salomlashuv hisoblanadi. Quchoqlashish, yelkadan quchish kabi harakatlar faqat yaqin tanishlar yoki oila a‘zolari o‘rtasida kuzatiladi.

O‘zbek madaniyatida paralingvistik xulq-atvor bu o‘zbek xalqining kommunikatsiya madaniyati sharqona emotsionallik, samimiyat va jamoaviylik ruhiga asoslangan. Paralingvistik vositalar juda boy va madaniy jihatdan belgilangan. Masalan, vokal paralingvistikada ovoz balandligi inglizlarga nisbatan ancha yuqori. Ohang emotsionallikka boy, ba‘zan keskin o‘zgaruvchan. Bunday ohang ko‘pincha mehr, samimiyat yoki qiziqishning tabiiy ifodasi hisoblanadi.

O‘zbeklar suhbat davomiyligida mimika va imo-ishora, ayniqsa qo‘l harakatlaridan faol foydalanadilar. Bu harakatlar gap mazmuniga kuchli ta‘sir qiladi. Masalan, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish hurmat ifodasidir.

Ko‘z bilan aloqa ham o‘zbek madaniyatida yosh va maqomga qarab farqlanadi. Kattaga tik boqish odobsizlik deb qaralishi mumkin.

Proksemik paralingvistik belgilar, asosan yaqin masofa o‘zbeklar turmush-tarzida tabiiy holat sifatida qaraladi. Suhbatdoshga yaqin turish samimiyat va hurmat belgisi sifatida ko‘riladi.

Taktika bo‘limiga oid qo‘l berib ko‘rishish bilan birga, erkaklar o‘rtasida quchoqlashish, ayollar o‘rtasida esa qo‘l ushlashish odatiy hol. Bu tegishishlar ingliz madaniyatida noodatiy bo‘lishi mumkin.

Ingliz madaniyatida quyidagi parcha rasmiy uchrashuv davomidagi boshqaruvchi (manager) tomonidan aytilgan nutqdan olingan bo‘lib, undagi nutq ohangi neytral darajada va hissiyotlardan yiroq tarzda aks ettirilgan. Natijada nutq ohangi rasmiylik va aniqlikni ta‘minlash bilan birga tinglovchini ortiqcha hissiyotlar orqali chalg‘itmaslikka xizmat qilganini ko‘rish mumkin.

Menejer: “We need to finalize the report by Friday.”

O‘zbek madaniyatida yuqoridagi parcha ohang o‘zgaruvchanligi hissiy belgilar orqali ifodalanishi va natijada samimiy muloqot shakllanib, o‘zaro iliqlik hissini oshirish uchun shunday tarjima qilingan:

“Biz bu ishni albatta birga tugatamiz, do‘stlar!”

Ingliz madaniyatida bir jumla orqali xushmuomala, lekin qat’iy ohangda mukammal intonatsiya bilan ifodalanib, talab va rasmiylikni bildiradi.

“Please submit the proposal by Monday.”

O‘zbek madaniyatidan keltirilgan quyidagi parchada ovoz ohangi iliq hissiy belgilar bilan ifodalangan bo‘lib, tinglovchida iliqlik va hamjihatlik hissini uyg‘otadi: “Iltimos, hujjatni tezroq ko‘rib chiqing, do‘stlar.

Suhbat davomida boshni yengil egish, qo‘l bilan kichik imo-ishora singari holatlar ingliz madaniyatida bu singari imo-ishora va harakatlar rasmiy uchrashuv jarayonidagi yuz ifodasi minimal hisoblanadi va natijada professionalizm va neytrallikni saqlanadi.

O‘zbek madaniyatida esa do‘stona yoki oilaviy suhbat jarayonida boshni yengil egish, qo‘l bilan kichik imo-ishora kabi harakatlar hissiy aloqani kuchaytiradi, samimiylkni bildiradi.

Har ikki madaniyatda paralingvistik belgilar kommunikatsiyada muhim vosita hisoblanadi. Kulgi ijtimoiy muhitni yumshatuvchi faktor sifatida qo‘llanadi ohang esa nutqning pragmatik ma’nosini kuchaytiruvchi unsurdir.

O‘zbeklar yuqori emotsional jihatdan ustun, inglizlar esa neytral va nazoratlangan. Ko‘z bilan aloqa esa inglizlar uchun ishonch vositasi bo‘lsa, o‘zbeklarda ba’zi hollarda noqulaylik va hurmatsizlik belgisidir. Oraliq masofa ham inglizlar uchun muhim, o‘zbeklarda esa buning aksi. O‘zbeklarda jismoniy aloqa keng, ammo inglizlarda esa cheklangan va shu jihatdan farqlanadi. O‘zbeklarda keng va boy imo-ishora harakatlaridan foydalaniladi inglizlarda esa ko‘proq minimalistikka asoslangan.

Bu farqlar ba’zan madaniyatlararo tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘zbeklarning yaqin turishi ingliz odamda noqulaylik uyg‘otishi yoki inglizning minimal imo-ishorasi “sovuqqonlik” sifatida talqin qilinishi mumkin.

Madaniyatlararo kommunikatsiyada paralingvistikaning tutgan o‘rni juda muhim hisoblanadi. Paralingvistik vositalarning noto‘g‘ri talqini madaniyatlararo muloqotda ko‘plab muammolar tug‘diradi. Misol uchun, ingliz-o‘zbek kontekstida quyidagi holatlar uchrashi mumkin:

1. Inglizning sust mimikasi o‘zbek suhbatdoshi tomonidan befarqlik sifatida qabul qilinishi;

2. O‘zbeklarning baland ovozda gapirishi inglizlarga muloqot jarayonida agressiya sifatida tuyuladi.

3. O‘zbeklardagi yaqin masofa inglizda shaxsiy hududga nisbatan noqulaylik hissini uyg‘otadi yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin.

Shu sababli madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta’lim, tarjimonlik va xalqaro diplomatiyada muhim vazifa hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek madaniyatlarida paralingvistik xulq-atvorning muloqot jarayonidagi ahamiyati sezilarli. Paralingvistika nutq bilan birga yuz ifodasi, ovoz ohangi, tembr, pauza, imo-ishora va tana harakatlarini o‘rganib, madaniyatlararo tushunchalar shakllanishining oshirilishiga xizmat qiladi. Ingliz madaniyatida rasmiy muloqotda neytral ohang, masofa va aniq strukturalangan nutq ustun bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida ilqlik, hissiy ohang va imo-ishoralarning faol ishlatilishi kuzatiladi. Ushbu farqlar madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklar paydo bo‘lishining oldini olish uchun muhim ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, paralingvistik elementlarni to‘g‘ri tushunish tarjima va xalqaro kommunikatsiya jarayonida samarali aloqa uchun zarurdir. Madaniyatlararo kompetensiya shakllantirilishi, ayniqsa ta‘lim va professional muloqotda muvaffaqiyatga erishishda katta rol o‘ynaydi. Natijada, paralingvistik xulq-atvorni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, ikki madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotni yanada samarali va tushunarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birdwhistell, R. Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
2. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.
3. Trager, G. L., Smith, H. L. Paralinguistics. American Anthropologist, 1957.
4. Mehrabian, A. Silent Messages. Wadsworth Publishing, 1971.
5. Hall, E. T. The Hidden Dimension. New York: Anchor Books, 1966.
6. Qo‘chqortoyev I. Nutq madaniyati va muloqot asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
7. Safarov Sh. Pragmatika va lingvokulturologiya. Toshkent: Fan, 2008.
8. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2003.
9. Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, 2001.
10. Mamarasulova, Gulnoz. "THE INFLUENCE OF ORIENTAL LITERATURE ON ENGLISH POETRY AND PROSE." Nordic_Press 8.0008 (2025)ю
11. Abdulloyeva K. MUALLIF DISKURSIV SHAXSINING SARLAVHA VA EPIGRAF VOSITASIDA NAMOYON BO‘LISHI. Наука и инновация, 2(21), 41–44. <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46594>